

MULOQOTDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISHDA LOGOPEDIYA FANINING AHAMIYATI

Anvarxonova Dilobarxon Sanjarovna,
O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti talabasi
Email: anvarxonovadilobar25@gmail.com.
Supervisor: **Sharipova Dilnoza**

Annotatsiya . Ushbu maqolada muloqot jarayonida ro'y beradigan turli xil nutqiy muammolar, ularning kelib chiqish sabablari hamda ularni bartaraf etishda logopediya fanining ahamiyati va roli tahlil qilinadi. Shuningdek, bu nuqson bilan aziyat chekayotgan bolalar bilan ishlash jarayonida pedagogik, logopedik usullarni qo'llash hamda ularning amaliy natijalari tog'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: muloqot, nutq nuqsoni, logopediya, pedagogika, nutq rivojlanishi.

Аннотация. В статье рассматриваются проблемы общения, возникающие из-за речевых нарушений, причины их появления и пути коррекции. Особое внимание уделяется роли логопедии в образовательном процессе и сотрудничеству педагогов и логопедов.

Ключевые слова: общение, речевые нарушения, логопедия, развитие речи, педагогика.

Abstract . This article investigates various speech-related problems that occur in the process of communication, their causes, and the importance and role of the field of speech therapy in avoiding these difficulties. It also highlights implementations of different pedagogical and speech-therapy methods when working with children who suffer from such disorders as well as the effectiveness and results of these approaches.

Keywords: communication, speech disorder, speech therapy, pedagogy, speech development.

Kirish. Muloqot inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, nutq orqali inson o'z his-tuyg'ularini va kechinmalarini ifodalaydi, axborot almashadi va jamiyat bilan aloqa o'rnatadi.¹. Biroq, bugungi kunda bolalarda nutq rivojlanishidagi buzilishlar va kechikishlar soni tobora ortib bormoqda va bu ularning psixologik holati, ijtimoiylashuvi hamda ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ushbu muammolar ayniqsa muloqot jarayonida yaqqol namoyon bo'lib, bolaning o'z fikrini erkin ifoda eta olishiga va jamiyatda faol ishtirok etishiga to'sqinlik qilishi tabiiydir.. Nutqiy nuqsonlarning kelib chiqishi esa turli biologik, ijtimoiy va pedagogik omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.²

Ushbu maqolaning maqsadi — muloqot jarayonida yuzaga keladigan nutqiy muammolarni aniqlash, ularning sabablarini o'rganish va yechim izlash hamda logopedik va pedagogik yondashuvlarni to'g'ri baholashdan iborat. Shuning uchun logoped mutaxassislar nutq apparati faoliyatini rivojlantirish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish hamda nutq ravonligini oshirishga qaratilgan mashg'ulotlar olib bormoqdalar.

Metodologiya va sabablar. Muloqotdagi muammolar ko'pincha nutq apparatining rivojlanishidagi kamchiliklar yoki psixologik omillar sababli yuzaga keladi. Logopediya sohasida bu nutqiy buzilish deb ataladi va bolalarda uchraydigan nutqiy nuqsonlarning bir nechta turlari mavjud. Eng ko'p uchraydiganlari quyidagilar:

1. *Alaliya* - nutqiy rivojlanishning kechikishi. Bunda nutq muhiti yetishmovchiligi, aynan, bola bilan suhbat qurishning sustlashishi yoki genetik jihatiga ham bog'liqligi;

2. Dislaliya – tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish yoki umuman ayta olmaslik. Bunda nutq organlari (til, lab, tish) yetarli darajada rivojlanmasligi yohud eshitish bilan bog'liq kamchiliklar;

3. Duduqlanish- nutq ritmi va ravonligi buzilishi. Odatda, bunday nuqson ruhiy zo'riqish yoki kuchli hissiy ta'sir oqibatida kuzatiladi.

Analiz. Bu kabi nutqiy buzilishlarni erta aniqlash va o'z vaqtida to'g'ri tashxis bilan davolash masalaning o'rinli yechimidir.

Pedagogik jarayonda o'qituvchi bunday nuqsoni mavjud o'quvchilarni erta aniqlashi va ular bilan alohida, yondashishi zarur. Bu esa o'z navbatida, o'qituvchidan maxsus tayyorgarlikni talab qiladi. Shu bilan birga, logoped mutaxassis bilan hamkorlik qilish maqsadga muvofiqdir.

Logopedik mashg'ulotlar orqali bolalarga tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, artikulyatsion gimnastika, nafas yo'li mashqlari hamda nutq faoliyatini shakllantirishga qaratilgan turli mashqlar vositasida bu muammolarni oz bo'lsada bartaraf etishimiz mumkin. (A. Mo'minov). Bundan tashqari, dars paytida nutqni rivojlantiruvchi pedagogik metodlardan foydalanish ham muhimdir. Misol uchun, hikoya tuzish, she'r yodlash, matnni ifodali o'qish va savol-javob usullaridan foydalanish orqali o'quvchilarning so'z boyligini oshirish va muloqot ko'nikmalarini hosila qila olishimiz mumkin.

Ota-onalar bilan hamkorlik esa muammoning asosiy va kafolatli qismidir.³ Chunki bolani qachonki oila a'zolari va yaqinlari qo'llab-quvvatlasa, bola o'shanda o'zini erkinroq his qilishi va o'ziga ishonchi ortishi mumkin. Bola bilan ko'proq vaqt o'tkazish, suhbat qurish, asta-asta gapirsa-da uni shoshiltirmay diqqat bilan tinglashi ota-onalarning muhim vazifalaridir, aslida.

Xulosa . Xulosa qilib aytganda, bolalarda uchraydigan nutqiy muammolar ularning ijtimoiy muloqot jarayoniga, psixologik holati hamda hayot faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu turdagi muammolar esa turli biologik, psixologik va ijtimoiy omillar natijasida ro'y berishi mumkin. Shu sababli ularni erta aniqlash va o'z vaqtida zarur choralarni ko'rish muhim hisoblanadi. Pedagog, logoped va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik bolalarning nutq rivojlanishini samarali tashkil etishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Vygotsky, L. S. (1986). Thought and Language. Cambridge: MIT Press.
2. Levina, R. E. (2005). Osnovy logopedii. Moskva: Prosveshchenie.
3. Mo'minov, A. (2019). Logopediya asoslari. Toshkent: O'qituvchi.
4. Karimova, D. (2021). Bolalarda nutq rivojlanishining pedagogik asoslari. Toshkent.